

## **“KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH MENEJMENT TIZIMI”NING FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA UMUMIY YILLIK HISOBOT**

### **I. Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi.**

Bankning 2023-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga asosan 2023-yil mobaynida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

2023-yil mobaynida Bosh bank hamda barcha hududiy tarkibiy bo‘linmalarda o‘quv-seminarlar tashkil etilib barcha tarkibiy bo‘linmalar xodimlari bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari bo‘yicha o‘qitildi. Xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlash maqsadida 2693 nafar xodimlar orasida test sinovlari o‘tkazildi.

ISO 37001:2016 Xalqaro standarti asosida maxsus o‘qitishlarni tashkil etish maqsadida trening tashkilotni tanlash bo‘yicha xarid jarayonlari o‘tkazilib bugungi kunda trening tashkiloti bilan shartnomा tuzish jarayonida. 29.12.2024-yil holatiga 130 nafardan ziyod bank xodimlari uchun maxsus o‘qitishlar tashkil etilgan.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tajriba almashish, xodimlarning bilimlarini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar o‘tkazildi:

“Bank faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ishlar” mavzusida;

“9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida o‘tkazilgan ochiq eshiklar kuni”;

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etish hamda samarali boshqarish omillari” mavzusida.

### **II. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bankda qabul qilingan ichki me’yoriy hujjatlar.**

Bank Kuzatuv kengashining tegishli qarorlari bilan korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha quyidagi ichki me’yoriy hujjatlar tasdiqlangan:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Odob-axloq Kodeksi hamda unga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘srimchalar;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (yangi tahrirda);

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish siyosati;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Komplayens-nazorat departamenti to‘g‘risida”gi Nizom (yangi tahrirda);

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda afillangan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisobga olish va oshkor qilish tartibi;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish tartibi.

Bank Boshqaruvining tegishli qarorlari bilan korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha quyidagi ichki me’yoriy hujjatlar tasdiqlangan:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning vazirlik va idoralar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘zaro hamkorlik qilish tartibi qabul qilingan.
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-xarakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi nizom;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomalar;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazarat qilish uslubiyoti;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korrupsiyaga qarshi menejment tizimini nomuvofiqliklar va tuzatuvchi choralarini boshqarish bo‘yicha tartib;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shartlari;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning xodimlar bilan ishlash tartibi to‘g‘risida”gi nizom;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha qo‘llanma;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda biznes-hamkorlarni tekshirishga oid yo‘riqnomalar;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi (yangi tahrirda);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining ichki auditini o‘tkazish tartibi;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizom;
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshirushi o‘tkazish tartibi (yangi tahrirda);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomalar (yangi tahrirda);
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish tartibi (yangi tahrirda).

Mazkur hujjatlar bankning “Intranet” dasturiga joylashtirilgan hamda barcha xodimlar ulardan ish faoliyatida foydalanish imkoniyatiga ega.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash.**

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti” (ro‘yxat raqami: 3383, 31.08.2022 y.) hamda bank faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibiga asosan amalga oshirildi. Baholash natijasiga ko‘ra bankda 14 tasi maqbul (past), 5 tasi o‘rtacha va 1 ta – yuqori xavf-xatarlar deb belgilandi va tasdiqlandi.

Shuningdek, Bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar ro‘yxati hamda 2023-yil korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi maqsadlar belgilangan va o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha reja-dastur tasdiqlangan.

Bugungi kunda korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati:  
45 ta lavozimda korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past;  
27 ta lavozimda korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi o‘rta;  
31 ta lavozimda korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi yuqori deb baholandi.

#### **IV. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar.**

Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining tegishli qarorlari bilan:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish Siyosati”;

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjatlar bilan bankda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish tartiblari, shuningdek manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilishning qoidalari belgilangan.

Bankda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari kelib chiqishini oldini olish maqsadida quyidagi holatlarda deklaratsiyalar taqdim etilishi belgilangan:

- vakant bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlarga nomzodlarni lavozimga tayinlash va (yoki) rotatsiya qilishda;

- yillik deklaratsiyalar (har yili 15-fevral kuniga qadar);

- real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzaga kelgan holatda.

2023-yil mobaynida bank tizimida 3870 nafar xodimlar (95,3%), shu jumladan rahbar xodimlar manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi to‘g‘risida deklaratsiyalarini taqdim etishgan.

Deklaratsiyalar tahlili natijalariga ko‘ra bank tizimida real manfaatlar to‘qnashuvi 12 ta (*Bosh bankda 1 ta, Hududiy tarkibiy bo‘linmalarda 11 ta*) holatda, potensial manfaatlar to‘qnashuvi 155 ta (*Bosh bankda 64 ta holat, hududiy tarkibiy bo‘linmalarda 91 ta*) holatda mavjud deb belgilandi va mazkur holatlarni bartaraf etish yuzasidan hujjatlar bankning Odob-axloq komissiyasi muhokamasiga kiritilib, mazkur komissiya qaroriga asosan tegishli chora-tadbirlar ko‘rildi.

#### **V. Korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini sharnomalariga kiritish holati.**

Bankning Moliya institutlari va investorlar bilan ishslash departamentining ma’lumotiga ko‘ra 2023-yil dekabr oyi holatiga “Biznes hamkorlar ro‘yxati”da 37 hamkorlar kiritilgan bo‘lib, ular bilan tuzilgan shartnomalarga Bank Boshqaruvining tegishli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shartlari” kiritilgan.

Shuningdek, bankning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha shartlar:

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida bank hisobravag‘i shartnomasi va mijoz hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatishga doir boshqa shartnomalarni hamda bank tizimida kredit va kredit ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalarni tuzish bo‘yicha tavsiyalarda;

Kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga;

Xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalarga kiritilishi ta’milanmoqda.

#### **VI. Kontragentlar va ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish holati**

2023-yil 29-dekabr kuni holatiga bank tizimida 813 ta kontragent o‘rganilgan. O‘rganish natijasiga ko‘ra xulosalar - 813 tani tashkil etadi.

#### **VII. Ta’lim va kommunikatsiya.**

Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasida huquqiy ongini yanada oshirish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida bank tizimida 2023-

yilda o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha reja-dastur tasdiqlangan va belgilangan muddatlarda o‘quv-treninglar o‘tkazilgan.

2023-yil mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi qoidalari va talablari bo‘yicha barcha tarkibiy bo‘linmalar xodimlari o‘qitilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablarining o‘zlashtirilganlik darajasini tekshirish maqsadida 2693 nafar (66,3%) xodimlar orasida test sinovlari o‘tkazilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tajriba almashish maqsadida komplayens-nazorat departamenti xodimlari quyidagi seminar va boshqa tadbirlarda ishtirok etishgan:

03.08.2023-yilda “Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish va komplayens-nazorat tizimini samarali joriy etish mavzusi”dagi seminarda;

15.09.2023-yilda “Xalqaro ISO 37001:2016 standartini qo‘llashda Forenzikning o‘rni” mavzusidagi seminarda;

03.10.2023-yilda “Komplayens-nazorat tuzilmalari xodimlari uchun yevropalik mutaxassislar ishtirokidagi trening”da;

03.11.2023-yilda “III-Toshkent aksilkorrupsiya forumi”da (*mazkur Forumda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB – komplayens-nazorat tizimini samaraliy joriy etgan tashkilot sifatida e’tirof etilgan*);

Shuningdek, 29.09.2023 yilda “Bank faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ishlar” mavzusidagi trening hamda 29.11.2023-yilda “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida ochiq eshiklar kuni” o‘tkazilgan. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan xamkorlikda tashkil etilgan tadbirda bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari doirasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tadbir ishtirokchilariga ma’lumot taqdim etilgan, joriy etilgan tizim bilan batafsil tanishtirilgan.

Bank Boshqaruvi Raisining korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yuzasidan xodimlar va fuqarolarga yo‘llangan murojaati bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan.

Bankda ishga qabul qilingan yangi xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari va qoidalari yuzasidan “Welcome Training” dasturi bo‘yicha o‘quv-treninglar o‘tkazilib kelinmoqda. 29.12.2023-yil holatiga ko‘ra mazkur dastur asosida 100 nafardan ziyod yangi xodimlarga tizim qoidalari va talablari bo‘yicha trening o‘tkazilgan.

Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

bank mijozlari hamda xodimlari orasida bankning rasmiy veb-sayti va telegramm ijtimoiy tarmoqlari orqali so‘rovnomalar o‘tkazildi hamda o‘tkazilib kelinmoqda;

telegramm ijtimoiy tarmoq orqali bank xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va Odob-ahloq qoidalari talablari mavzusida “Animatsion” roliklar yuborish mehanizmi yo‘lga qo‘yilgan;

hududiy tarkibiy bo‘linmalarda axborot bannerlar, pauchok va teybl-tentlar ishlab chiqilgan va joylashtirilgan.

### **VIII. Monitoring va nazorat.**

2023-yil yakuniga:

OAV va ijtimoiy tarmoqlarda bank xodimlarining korruption xatti-xarakatlari haqida ma’lumot mavjud emas;

barcha aloqa kanallari soz va ish faoliyatida;

bankda aloqa kanallari orqali kelib tushgan murojaatlar reyestri yuritilgan.

2023-yil uchun mo‘ljallangan yillik nazorat tadbirdari rejasiga muvofiq yil davomida qo‘yidagi bank tarkibiy, shu jumladan hududiy tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi tartib-taomillari bo‘yicha monitoringlar o‘tkazilgan:

Bank Amaliyot boshqarmasi va Toshkent shahridagi hududiy tarkibiy bo‘linmalarda;

Toshkent viloyatidagi hududiy tarkibiy bo‘linmalarda;

Andijon viloyatidagi hududiy tarkibiy bo‘linmalarda;

Namangan viloyati hududiy boshqarmasi va BXMDa;

Farg‘ona viloyatidagi hududiy tarkibiy bo‘linmalarda;

Sirdare viloyati hududiy boshqarmasi va BXO;

Jizzax viloyati hududiy boshqarmasi va BXM;

Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi va BXM;

Buxoro viloyatidagi hududiy tarkibiy bo‘linmalarda;

Navoyi viloyati hududiy boshqarmasi va BXM

Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi va BXO;

Qoraqolpog‘iston Respublikasidagi hududiy tarkibiy bo‘linmalarida;

Qashqadaryo viloyatidagi hududiy tarkibiy bo‘linmalarda;

Surxondaryo viloyatidagi hududiy tarkibiy bo‘linmalarda.

## **IX. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlар то‘г‘risidagihabarlar yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumot.**

2023-yil mobaynida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to‘qnashushi, boshqa qonunbuzarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risidagi aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar bo‘yicha 8 ta xizmat tekshiruvlar o‘tkazilib, natijalari bo‘yicha tegishli choralar amalga oshirildi.

Aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlar:

Toshkent shahridan 2 ta (elektron pochta orqali);

Farg‘ona viloyatidan 1 ta (elektron pochta orqali);

Namangan viloyatidan 2 ta (telegramm-bot orqali);

Xorazm viloyatidan 2 ta (1 ta murojaat telegramm-bot orqali, 1 ta murojaat yozma shaklda);

Surxondaryo viloyatidan 1 ta (telegramm-bot orqali).

## **X Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choraları.**

Kelib tushgan murojaatlar bo‘yicha tegishli tartibda xizmat tekshiruvlari o‘tkazilgan va ularning natijasida:

6 ta holatda – tasdig‘ini topgan;

1 ta holatda tasdig‘ini topmagan;

1 ta holat - o‘rganish jarayonida.

Aniqlangan qoidabuzarliklar holatlari bo‘yicha:

2 ta xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi;

2 ta holat bo‘yicha hujjatlar huquqni muhofaza qilish organlariga yuborildi;

3 ta holat bo‘yicha profilaktik suhbatlar o‘tkazildi

**XI. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar.**

2024-yil mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va talablari bo‘yicha o‘quv-treninglar hamda test sinovlarini davom ettirish;

Bank hududiy tarkibiy bo‘linmalarini Xalqaro ISO 37001:2016 standart talablariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazish.

2024-yil 10-yanvar

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH MILLIY  
KENGASHINING BAYONNOMALARI BILAN BELGILANGAN CHORA-  
TADBIRLARNING IJROSI BO'YICHA HISOBOT**

<b>t/r</b>	<b>Tadbirlar nomi</b>	<b>Bajarish muddati</b>	<b>Amalga oshirilgan ishlar</b>
1	Ichki nazorat tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan seminar mashg'ulotlarida reyting baholash natijalariga ko'ra yuqori natijalarga erishgan davlat tashkilotlarining tajribasini ommalashtirish	yil davomida	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tajriba almashish maqsadida komplayens-nazorat departamenti xodimlari quyidagi seminar va boshqa tadbirlarda ishtirok etishgan:</p> <p>03.08.2023-yilda "Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish va komplayens-nazorat tizimini samarali joriy etish mavzusi"dagi seminarda;</p> <p>15.09.2023-yilda "Xalqaro ISO 37001:2016 standartini qo'llashda Forenzikning o'mni" mavzusidagi seminarda;</p> <p>03.10.2023-yilda "Komplayens-nazorat tuzilmalari xodimlari uchun yevropalik mutaxassislar ishtirokidagi trening"da;</p> <p>03.11.2023-yilda "III-Toshkent aksilkorrupsiya forumi"da (mazkur Forumda "O'zsanoatqurilishbank" ATB – komplayens-nazorat tizimini samaraliy joriy etgan tashkilot sifatida e'tirof etilgan);</p> <p>Shuningdek, 29.09.2023-yilda "Bank faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ishlar" mavzusidagi trening hamda 29.11.2023-yilda "9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"ga bag'ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida ochiq eshiklar kuni" o'tkazilgan. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan xamkorlikda tashkil etilgan tadbirda bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi talablari doirasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tadbir</p>

			ishtirokchilariga ma'lumot taqdim etilgan, joriy etilgan tizim bilan batafsил tanishtirilgan.
2	Sohada korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlarning holati yuzasidan ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi orasida so'rovnomalalar o'tkazish va natijalarini tahlil qilib borish	har yarim yillikda	<p>Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:</p> <p>bank mijozlari hamda xodimlari orasida bankning rasmiy veb-sayti va telegramm ijtimoiy tarmoqlari orqali so'rovnomalalar o'tkazildi hamda o'tkazilib kelinmoqda;</p> <p>telegramm ijtimoiy tarmoq orqali bank xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi va Odob-ahloq qoidalari talablari mavzusida “Animatsion” roliklar yuborish mehanizmi yo'lga qo'yilgan.</p>
3	Vazirlik va idoralar hamda ularning hududiy tuzilmalarida “Ochiq eshiklar kunilari”ni tashkil etish	noyabr oyи	29.11.2023-yilda “9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” ga bag'ishlangan Aksilkorruptsiya oyligi doirasida ochiq eshiklar kuni” tadbiri o'tkazildi

2024-yil 10-yanvar

## **KORRUPSIYA FAKTLARIGA DOIR MUROJAATLARNI KO'RIB CHIQISH NATIJALARI HAQIDAGI YILLIK HISOBOT**

2023-yil davomida bankning korrupsiyaga haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali jami 8 ta murojaat kelib tushgan. Ulardan:

Toshkent shahridan 2 ta (elektron pochta orqali);  
Farg'ona viloyatidan 1 ta (elektron pochta orqali);  
Namangan viloyatidan 2 ta (telegramm-bot orqali);  
Xorazm viloyati 2 ta (1 ta murojaat telegramm-bot orqali, 1 ta murojaat yozma shaklda);  
Surxondaryo viloyatidan 1 ta (telegramm-bot orqali).

Kelib tushgan murojaatlар bo'yicha tegishli tartibda xizmat tekshiruvlari o'tkazilgan va ularning natijasida:

6 ta holatda – tasdig'ini topgan;  
1 ta holatda tasdig'ini topmagan;  
1 ta holat - o'rganish jarayonida.

Aniqlangan qoidabuzarliklar holatlari bo'yicha:  
2 ta xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi;  
2 ta holat bo'yicha hujjatlar huquqni muhofaza qilish organlariga yuborildi;  
3 ta holat bo'yicha profilaktik suhbatlar o'tkazildi

2024-yil 10-yanvar